



Social democratic concept of a welfare state

Khabibulla YUNUSKHODJAEV¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 October 2023

Available online

15 December 2023

Keywords:

justice,
freedom,
socialism,
Stockholm,
revolution,
equality,
solidarity,
congress,
model,
system.

ABSTRACT

In the article, the idea of socialism, based on the principles of social equality and justice, freedom, and solidarity, has conquered the minds and hearts of the peoples of the whole world, served the emergence and successful development of political trends that will improve life, these realities correspond to the trends of the 20th century. Social democrats have expressed them in several concepts.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp66-71>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik konsepsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

adolat,
erkinlik,
sotsializm,
Stokgolm,
inqilob,
tenglik,
birdamlik,
kongress,
model,
tizim.

Mazkur maqolada muallif ijtimoiy tenglik va adolat, erkinlik va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan sotsializm g'oyasi butun dunyo xalqlari ongi va qalbini zabt etgani, hayotni qat'iy yaxshilaydigan siyosiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi va muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilgani, bu voqealiklar XX asrdagi tendensiyalarga ta'sir qilishini ta'kidlab, sotsial-demokratlar ularni bir qancha tushunchalarda ifodalaganini bayon etadi.

¹ Independent researcher, Urgench State University.

Социал-демократическая концепция социального государства

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

справедливость,
свобода,
социализм,
Стокгольм,
революция,
равенство,
солидарность,
конгресс,
модель,
система.

В данной статье автор осмысливает, как идеология социализма, основывающаяся на фундаментальных принципах социальной равноправности, справедливости, свободы и взаимовыручки, завоевала мысли и чувства народов мира. Она стала основой для возникновения и прогресса политических течений, которые существенно трансформировали жизненные условия. Воздействие этих идей существенно определило направления развития двадцатого столетия, причем социал-демократические силы отразили эти идеи в ряде своих концептуальных подходов.

KIRISH. G'arbiy Yevropa sotsial-demokratiyasi o'zining samaradorligi va ishonchliligini isbotlagan aralash iqtisodiyotni rivojlantirishda, shu jumladan hukumat darajasida ishtirok etib, katta tajribaga ega bo'ldi va bu fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish hamda yuqori darajadagi farovonlikni ta'minlashga imkon berdi.

Aynan sotsial-reformistik kuchlar birinchi bo'lib ijtimoiy davlat konsepsiyasini ilgari surdilar va uni hayotga tatbiq etish uchun eng izchil shaklda kurashdilar. Shu munosabat bilan aynan ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik konsepsiyasi eng chuqur va har tomonlama o'ylanganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Zamonaviy sotsial-demokratiyaning ijtimoiy davlatga munosabatini belgilaydigan asosiy tamoyillari 1989-yilda Stokgolmda bo'lib o'tgan va Ikkinchi Internatsionalning 100 yilligi va Buyuk Fransuz inqilobining 200 yilligiga to'g'ri kelgan XVIII Sotsialistik Internatsional Kongressida qabul qilingan dasturiy hujjatlarda jamlangan shaklda ifodalangan edi[1].

NATIJARLAR. Ijtimoiy tenglik va adolat, erkinlik va hamjihatlik tamoyillariga asoslangan sotsializm g'oyasi butun dunyo xalqlari ongi va qalbini zabt etgani, hayotni qat'iy yaxshilaydigan siyosiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi va muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilgani, bu voqeliklar XX asrdagi tendensiyalariga ta'sir qilishini ta'kidlashib, sotsial-demokratlar ularni bir qancha tushunchalarda ifodalaydilar.

МУНОКАМА.

Tenglik barcha insonlarning turli xil qadriyatini anglatadi va shaxs hamda ijtimoiy taraqqiyotning erkin rivojlanishining ajralmas sharti bo'lib xizmat qiladi. Tenglik va shaxsiy erkinlik ajralmasdir.

Erkinlik – bu individual va hamkorlikdagi sa'y-harakatlarning natijasi, insoniyat jamiyatini ozod qilishning yagona jarayonining bir qismi. Har bir inson siyosiy majburlovdan xoli bo'lish, birdamlik ko'rsatgan holda o'z shaxsiy maqsadlari va shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilish huquqiga ega.

Birdamlik umuminsoniy tamoyil bo'lib, u insoniylik umumiyiligini va adolatsizlik qurbonlariga hamdardlik tuyg'usini amalda ifodalaydi.

Adolat deganda shaxsga nisbatan har qanday kamsitishlarga barham berish, shuningdek, huquqiy va ijtimoiy imkoniyatlar tengligi tushuniladi. Bu diskriminatsiyaning

tugatilishi: huquq va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, birinchi navbatda, jamiyatning tadbirkorlarga, davlatning insonlarga jismoniy, ruhiy va ijtimoiy tenglik imkoniyatini yaratish bilan izohlanadi. Ikkinchidan, fuqarolarni ishlab chiqarish vositalari egalari va siyosiy hokimiyat yetakchilariga qaramlikdan ozod qilish uchun kurash olib borishda namoyon bo'ladi.

Sotsial-demokratlar huquq va erkinliklar bir-birini almashtira olmasligi va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mumkin emasligidan kelib chiqib, shaxs erkinligi, jamiyatning plyuralizmi va undagi shaxsning asosiy huquqlariga rioya etilishiga inson qadr-qimmatini ta'minlashning ajralmas shartlari ekanligini ta'kidlaydilar.

Ushbu asosiy tamoyillar nuqtai nazaridan va shaxs huquq hamda erkinliklarining ajralmasligini hisobga olgan holda, sotsial-demokratlar "demokratik sotsializm" kategoriyasining mazmunini belgilab beradilar. Bu jamiyatda asosiy insoniy qadriyatlar konstitutsiyaviy mustahkamlab qo'yilgan va amalda ta'minlangan, har bir inson demokratik rejimlarga xos bo'lgan inson va fuqaro huquqlari kafolatlaridan foydalangan holda o'z shaxsiy fazilatlari va iste'dodlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy munosabatlar tizimi fuqarolik jamiyati, fuqarolar tashkilotlari va ularning siyosiy birlashmalarining ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini amalga oshirishda tobora faolroq ishtirok etishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, ijtimoiy davlat sotsial-demokratlar uchun kapitalizmni demokratik sotsializmga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Sotsial-demokratiyada ijtimoiy davlatning mavjudligi bir qancha omillar bilan asoslanadi.

Birinchidan, bozor kapitalizmining asosiy tuzilmalarining dinamik kuchlarini rag'batlantirish zarurati faqat bozor ijtimoiy jihatdan samarali ekanligini anglatmaydi. Bozor kuchlari mikroiqtisodiy darajada, ya'ni korxonalar, firma va boshqalar darajasida samaradorlikka erishish uchun asos hisoblanadi. Ammo o'z holiga tashlab qo'yilgani holda, ular odatda na to'liq bandlikni, na daromadning ijtimoiy jihatdan maqbul taqsimlanishini yoki sanoatning geografik joylashuvini ta'minlay olmaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va taqsimlash iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan bozor ixtiyoriga qo'yib bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlar ham mavjud. Bu, birinchi navbatda, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urtaning asosiy turlari, shuningdek, ko'p jihatdan - ta'lim tizimi kabi sohalaridir.

Ikkinchidan, teng imkoniyatlar prinsipiga sodiqlik va juda katta daromadlar tengsizligi bilan imkoniyatlar teng bo'lmasligini tan olish faqatgina siyosiy tamoyil sifatida emas, balki ma'lum bir iqtisodiy asosga ham ega. Sotsial-demokratiya nuqtai nazaridan qaraganda, teng huquqlilik yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Shaxsning o'z va jamoat manfaati uchun harakat qilish qobiliyati tengsizlik tuzilmalari bilan cheklanar ekan, iqtisodiyotning ijtimoiy samaradorligi yetarli emasligicha qoladi – bu ayniqsa ayollarning jamiyatdagi mavqeiga taalluqlidir.

Uchinchidan, iqtisodiy masalalarda ijtimoiy adolat tamoyiliga sodiqlik sotsial-demokratiyaning asoslaridan biri hisoblanadi. Mas'uliyat yukini "yelkalarini kengroq" bo'lganlar ko'tarishi, iqtisodiy yutuqlar samarasidan esa hamma bahramand bo'lishi kerak. Xususan, istalgan iqtisodiy o'zgarishlarning nojo'ya ta'siridan aziyat chekayotganlar, agar mavjud bo'lsa, ozgina foyda olsa, mazkur siyosatni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samarali deb bo'lmaydi.

To'rtinchidan, insonlarni xoh ish joyida turli kasaba uyushmasi orqali, xoh mahalliy, mintaqaviy yoki milliy darajadagi siyosiy jarayonlarda ishtirok etish orqali iqtisodiy qarorlar qabul qilishda imkon qadar keng ishtirok etishiga erishishini ta'minlash. Bu nafaqat siyosiy maqsad, balki iqtisodiy samaradorlikning muhim tarkibiy qismidir.

Beshinchidan, sotsial-demokratlar ijtimoiy xizmatlarning ayrim turlari iqtisodiyotni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi va shu bilan mamlakatning iqtisodiy farovonligiga hissa qo'shadi, deb hisoblaydi[2].

Sotsial-demokratlar uchun bozor faqat ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lsa-da, u vositalardan biridir. Ular qat'iy ishonch bilan ta'kidlashadiki, bozor har qanday vaqt va shartlarga mos keladigan yagona fenomen sifatida mavjud bo'lmaydi. Haqiqatda bozor institutlar yig'indisidir va bu institutlarning o'zaro ta'sir qilish usuli iqtisodiy siyosatga muqarrar ravishda katta ta'sir ko'rsatadi. Bozor nafaqat ayirboshlashda ishtirok etuvchi iqtisodiy agentlar tarmog'i, balki an'analar, qonunlar, sud amaliyoti, bankrotlik tartib-qoidalari, tadbirkorlik va mehnat munosabatlari, umidlar va boshqalarning murakkab kombinatsiyasidir.

Asosiy sotsial-demokratik tamoyillar va ijtimoiy davlatga yondashuvlar aniq mamlakatlar sotsial-demokratik hukumatlarining dasturlari va faoliyatida o'z ifodasini topadi. Ularning oldida, qoida tariqasida, eng adekvat moslashuvning ancha murakkab muammosi paydo bo'lib: ma'lum bir davlatning milliy xususiyatlariga sotsial-demokratik mafkura va siyosatni moslashtirish vazifalarini hal qilish talabi qo'yiladi. Shu bilan birga, sotsial-demokratlar tomonidan ijtimoiy davlat konsepsiyasi yanada boyitib, takomillashtirib borilmoqda.

Ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik modelining eng yorqin timsoli Shvetsiyadir. G'arb tadqiqotchilari bu mamlakat ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, oliy va o'rta ta'limning rivojlangan tizimini yaratishda – ijtimoiy infratuzilmani yaratishda deyarli bir ovozdan muhim muvaffaqiyatga erishganini ta'kidlamoqda.

Shvetsiya modelining g'oyaviy asosini shved sotsial demokratiya mafkurasini va amaliyotining konseptual asoslaridan birini tashkil etuvchi "xalqning umumiy burchi" g'oyalari tashkil qiladi.

1950 yillarda ijtimoiy davlatning jadal qurilishi davrida Shvetsiya sotsial-demokratlari o'z e'tiborini ijtimoiy adolat va tenglik muammolarini hal qilishga, turli sabablarga ko'ra jamiyatdan chetda qolgan fuqarolarni (kasallar, nogironlar, qariyalar va boshqalar) faol ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga jalb qilishga e'tibor qaratishdi. Asosiy islohotlar pensiya va nogironlik nafaqalarini joriy etishga (davlat pensiyasi, barcha fuqarolar uchun qo'shimcha mehnat pensiyasi, kasallik sug'urtasi, bolalar nafaqasi va boshqalar) qaratildi.

1960 yillarda sanoat ishlab chiqarish aktivlarini tarkibiy tuzatish va yangilash muammosi paydo bo'lganida, Shvetsiya sotsial-demokratlari "O'zgarishlar orqali himoyalash" shiorini ilgari surdilar, ya'ni iqtisodiyotdagi o'zgarishlar daromadlarning kamayishi yoki yo'qolishiga olib kelmasligi lozim, deb hisobladilar. Shu maqsadlarda mehnat resurslarini tartibga solish amalga oshirildi, bunda "birdamlikka asoslangan ish haqi" joriy qilindi, ya'ni sohalar bo'yicha ish haqi darajasini tenglashtirish daromadlarning adolatli taqsimlanishi kafolati bo'lib xizmat qildi[3].

Zamonaviy sharoitda Shvetsiya ijtimoiy siyosati "kambag'allikka qarshi kurash"dan (1900 yillarning boshlarida bo'lgani kabi) ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan. Buning sababi, 70 yillarning boshlarida, rasmiy

statistik ma'lumotlarga ko'ra, Shvetsiya aholisining atigi 3,5 foizining turmush darajasi rasmiy yashash darajasidan past bo'lganligi bilan izohlanadi[4]. Shu sababli, Shvetsiya ijtimoiy davlatining e'tibor markazi va ko'lami nisbatan kichik bo'lgan "kambag'allikka qarshi kurash" dan boshqa vazifalarni hal qilishga o'tishi tabiiydir.

Bugungi kunda, Shvetsiya sotsial-demokratlari tomonidan amalga oshirilayotgan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat[5]:

- barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoitini ta'minlash maqsadida daromadlarni adolatli va teng taqsimlash;

- Shvetsiya jamiyatining turli tabaqalari o'rtasidagi munosabatlarga, birinchi navbatda, aholining eng kambag'al qatlamlarining turmush sharoitini yaxshilash, ishchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun mo'tadil aralashuv;

- jamiyatning ayrim qatlamlari iste'molini tartibga solish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish mexanizmlari sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- kasaba uyushmalari va tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni markazlashtirilgan jamoaviy-shartnoma asosida tartibga solish;

- ish haqini markazlashgan tizimini yaratish va tartibga solish;

- biznes tizimi va davlatga qarshi ish tashlash kabi ishchilarning kuchli vositalardan foydalanishi bo'yicha markazlashtirilgan tizimni qo'llab-quvvatlash;

- harbiy-sanoat kompleksi tomonidan hukumat va kasaba uyushmalari qarorlariga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaslik;

- ishchilarning ishlab chiqarishga bo'lgan huquqlarini kengaytirishga, iqtisodiyotning ijtimoiy-jamoaviy sektorini mustahkamlashga, ishchilarning ijtimoiy himoyasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy konsensus siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan model mexanizmini ishga tushirish.

XULOSA. Shvetsiyada ijtimoiy davlatning eng muhim vositasi turli sinflar o'rtasidagi hamkorlikning "korporativistik" shakllaridan foydalanish hisoblanadi. Shvetsiya jamiyatidagi "korporativistik" tendensiyalar juda chuqur yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy sharoitda ular tobora kuchayib bormoqda, chunki ishchilarning katta qismi xususiy kapital va davlat apparati bilan hamkorlik qilishdan foydalanadi. Aynan Shvetsiya davlatining ijtimoiy siyosati mamlakatdagi sinfiy kurashning rivojlanishiga to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatdi va asosan mamlakat kasaba uyushmalari harakatida "korporativistik" tendensiyalarning mavjudligi va kuchayishini oldindan belgilab qo'ydi.

Ijtimoiy davlatning shved modeli va shunga mos ravishda umuman sotsial-demokratik modeli ko'plab siyosatchilar va olimlar tomonidan, shu jumladan Shvetsiyaning o'zida ham ayrim tanqidiy jarayonlardan voz kechilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Новый программный документ Социнтерна. // Коммунист. - 1989. -№1. - С.34-41.

2. Торлопов В.А. Социальное государство в России: анализ социально-политических аспектов: Дисс. ... докт. социол. наук. СПб. 1999. -С.23.

3. Гришин И.В. Шведская модель общественного развития // Мировая экономика и международные отношения. 2005. № 10. – С. 76-77.

4. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. -Cambridge: Polity Press. 1990. -P.65

5. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. -Cambridge: Polity Press. 1990. -P.68